



UDK: 81'243:371.38

Mavluda YUSUPOVA,
Urganch davlat universiteti tayanch doktoranti
E-mail: yusupovamavluda80@gmail.com

"TIQXMMI" milliy tadqiqot universiteti dotsenti, PhD M.Ro'zmetova taqrizi asosida

ANALYSIS OF PSYCHOPHYSIOLOGICAL PHENOMENA AND PSYCHOLINGUISTIC CONCEPTS IN THE PROCESS OF DEVELOPING WRITTEN SPEECH IN ENGLISH

Abstract

In this article, we will touch upon a number of scientific-theoretical and practical problems related to writing, and in the course of analyzing the psychophysiological phenomena that occur in the process of developing written speech and the psycholinguistic concepts associated with it, we will understand that it is a complex process.

Key words: writing, psychophysiological phenomena, psycholinguistic concepts, encoding, decoding, discourse, text.

АНАЛИЗ ПСИХОФИЗИОЛОГИЧЕСКИХ ЯВЛЕНИЙ И ПСИХОЛИНГВИСТИЧЕСКИХ ПОНЯТИЙ В ПРОЦЕССЕ РАЗВИТИЯ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ НА АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В данной статье мы затронем ряд научно-теоретических и практических проблем, связанных с письмом, и в ходе анализа психофизиологических явлений, возникающих в процессе развития письменной речи, и связанных с ней психолингвистических понятий, поймем, что это сложный процесс.

Ключевые слова: письмо, психофизиологические явления, психолингвистические понятия, кодирование, декодирование, дискурс, текст.

INGLIZ TILIDA YOZMA NUTQNI RIVOJLANTIRISH JARAYONIDA SODIR BO'LADIGAN PSIXOFIZIOLOGIK HODISALAR VA PSIXOLINGVISTIK TUSHUNCHALAR TAHLILI

Annotatsiya

Mazkur maqolada yozuv bilan bog'liq bo'lgan bir qator ilmiy-nazariy va amaliy muammolarga to'xtalib o'tib, yozma nutqni rivojlantirish jarayonida sodir bo'ladigan psixofiziologik hodisalar hamda u bilan aloqadorlik kasb etgan psixolingvistik tushunchalarni tahlil etish asnosida uning murakkab jarayon ekanligini anglab yetamiz.

Kalit so'zlar: yozuv, psixofiziologik hodisalar, psixolingvistik tushunchalar, kodlash, dekodlash, diskurs, matn.

Kirish. Zamonaviy metodika asosida ingliz tilini o'rganish/o'rgatish jarayoni mazkur tilda nutq faoliyatining 4 turini – tinglab tushinish, gapirish, o'qish va yozuvni egallashni nazarda tutadi. Xalqaro maydondagi ingliz tilining global til sifatidagi mavqei ushbu tilda ravonlikka erishishda yozuvni o'rgatishga muhim masala sifatida qarashga asos bo'lmoqda. Shu sababli, mazkur nutq faoliyati turini rivojlantirish muammosi ko'pgina xalqaro tadqiqotlar mavzusiga aylangan bo'lsada, yaqin yillarda bu ilmiy metodik masala tahliliga yana murojaat qilish va xulosa sifatida yangi metodologik yondashuvlarni taklif qilish zaruriyati yuzaga chiqdi. Fikrimizni yanada ochiqalaydigan bo'lsak, yetuk o'zbek professori Saidumar Saydaliyev tomonidan yozuvni o'rgatishdagi mavjud ayrim muammolar ta'kidlab o'tilgan: birinchidan, chet tilda muomala qilish malakasini rivojlantirishga qaratilgan dars berish uslubi tufayli shu kungacha yaratilgan o'quv darsliklarida yozuvni o'rgatishga bo'lgan e'tiborning boshqa nutq faoliyati turlariga nisbatan kamligi; ikkinchidan, yozuv nutq faoliyati turi sifatida asosan soha mutaxassislari uchungina egallash lozim bo'lgan malaka hisoblanganligi; uchinchidan, o'quv darsliklardagi yozuv ko'nikmasini rivojlantirishga yo'naltirilgan mashqlar yetarli emasligi va hatto mavjudlarida ham mashq bajarish jarayonining maqsadi til materialini o'zlashtirib olish, takrorlash va mustahkash hisoblanib, yozuv ushbu

jarayonda vosita vazifasida ekanligi; to'rtinchidan, yozuv bilan shug'ullanish ko'p vaqt talab qiladigan nutqiy faoliyat turi bo'lganligi, odatda u bilan talabalar/o'quvchilarning mustaqil shug'ullanishlari mumkin deb qaralgan [19]. Ta'kidlab o'tilgan va boshqa sabablar ingliz tilida yozuv nutqiy faoliyatining ilmiy muammolariga zamon nuqtai nazaridan qayta murojaat qilib, tadqiq etish zaruriyatini yuzaga keltirdi.

So'zlash faqatgina og'zaki nutqdan iborat bo'libgina qolmasdan, balki ushbu jarayonda yozish, ma'lum bir g'oya yoki fikrning tug'ilib, shakllanib ifoda etilishi nazarda tutiladi [19]. Yozuv jarayonida yetkazilishi rejalashtirilgan axborotni o'ylashga, tartibga solishga, unga lisoniy jihatdan bezak berib, ma'lum bir struktura asosida tizimlashga fursat bo'lib, yozuvchi tomonidan amalga oshirilayotgan ushbu harakatlar nisbatan sekin tarzda sodir bo'ladi. Chet tilda amalga oshiriladigan yozuv jarayonida muallif asta sekinlik bilan so'zdan jumlagi, jumladan gapga va gapdan esa matnga ko'chib fikr paydo bo'ladi. Shu o'rinda, professor N.I.Jinkinning inson so'zlashi uchun alohida gaplardan emas, matnlardan foydalanishi haqidagi mulohazasi, matn terminining mazmunini yanada chuqurroq ochishga chorladi [11].

Matn terminiga lug'atlarda ko'plab ta'riflar berilgan bo'lib, shulardan birida u "Yozma yoki bosma shaklda bayon etilgan muallif fikri, ijod mahsuli ..." [12]

tarzida ta'riflanadi. Shuningdek, I.R. Galperin matnni leksik, grammatik va mantiqiy bog'lanishlardan iborat yozma xabar sifatida ta'riflaydi [7]. Matn keng doiradagi tushuncha bo'lib, u bir yoki undan ortiq gaplardan tortib, ma'lum bir asardan olingan hikoya, aniq bir syujetga ega rasm yohud formula tarzida ifodalanishi mumkin [17]. Tashqi voqelikka munosabat bildiriladigan turli xildagi sohalarning o'rnanish/o'rgatish obyekti hisoblangan matn – ta'limiy matndir. Bu turdagi matn “ta'lim muloqoti uchun mos bo'lgan va ramziy funksiyaga ega bo'lgan chet til madaniyatining har qanday fakti [3]”dan iborat bo'lishi mumkin. Unda axborot uzatish usuli verbal, simvolik va vizual shaklda amalga oshadi. Verbal yoki audiomatn nutqning gapirish turida ishlatilsa, grafik belgilar asosida yaratilgan matndan yozuvda foydalaniladi. O'rta va oliy ta'lim muassasalarida ko'pincha verbal ya'ni so'zlar yordamida fikrni ifodalovchi matn turiga ko'proq murojaat qilinadi, chunki axborotni shu tarzda uzatish va uni qabul qilish jarayoni uchun o'quvchi/talabalar yetarli darajada bilimga ega hisoblanadi.

XX asrning yarmiga kelib nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni tarzida tadqiq etish ilmiy muomalaga diskurs tushunchasining kirishiga olib keldi. Nomdor amerika tilshunosi Zellig Harris [8] bu terminni birinchilardan bo'lib ishlatgan va hozirgi kunda uning dolzarbligi oshib, diskursiv tahlilning asosiy masalasi hisoblanadi. Diskurs so'zi, dastlab, “real vaqtda tildan foydalanish bilan bog'liq [2]” bo'lgan bo'lsa, keyinchalik u shaxslar orasidagi axborot almashinuv shakli - “harakatdagi til [13]” sifatida ko'rila boshlandi. Zamonaviy tilshunoslik nutqay nazaridan diskurs termini yanada kengroq mazmunni ifodalab, uning zamirida nafaqat lisoniy balki nolisoniy, ya'ni psixologik, sotsial va inson ongi bilan bog'langan omillarni o'zida jamlagan nutq ko'rinishini tushunish ommalashmoqda [20]. Mazkur fikr diskurs tushunchasi bilan izohlanadigan nutqiy tuzilmani birgina tilshunoslik doirasida muhokamaga tortishning iloji yo'qligini, bu jarayonda inson omili markaziy mavzu bo'lgan boshqa fanlarning integratsiyalashuvini bildiradi.

Diskursiv tahlilda ko'plab lingvistik tahlil yo'nalishlarining ayni bir paytda kesishishini kuzatish mumkin. Ongli tarzda nutq hosil qilish hamda uning idrok jarayoni diskursiv faoliyatda shaxs ro'lini o'rganishga undaydi, chunki “har qanday nutq ko'rinishi bu – o'zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faoliyatining natijasidir [4]”. Yuqorida keltirilgan qarash diskursiv tahlilda “psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslik [4]” kabi fanlarga ham murojaat qilinishini taqozo qiladi.

Hozirgi kundagi ilmiy yondashuvlarda diskurs murakkab kommunikativ faoliyat sifatida talqin qilinib, uning matndan farqli jihatlariga e'tibor qaratiladi. V.G. Borbotkoning fikricha, diskurs ham kommunikativ birliklarni o'z ichiga olgan matn hisoblandsada, matn tushunchasi unga nisbatan umumiyroqdir [5]. Shuningdek, olim diskursning “yuqori kommunikativ birlik [5]” sifatidagi mavqeyini rad etmaydi.

Ba'zi tadqiqotlar natijasi diskursni jarayon deb ta'riflasa, bu ayni paytda matnga undan farqli ravishda produkt (mahsulot) sifatida izohlashni taqozo qiladi [15]. Bunga ko'ra matn faqat bir muallifga egaligi bilan ko'pincha integrativ usulda namoyon bo'luvchi diskursdan farqlanmoqda va keltirib o'tilgan oppozitsiyaning dialog va

monologning odatiy qarama-qarshiligiga o'xshashligi ta'kidlanadi.

Zamonaviy tilshunoslik nuqtayi nazar bilan qaralganda diskurs va matn orasida tafovut va o'xshashliklarga turli xil qarashlarning mavjudligi bu mavzuni keng yoritishning imkonini cheklagan holda yakuniy mulohaza sifatida T.A. van Dijkning fikrni keltirib o'tamiz. Uning tabiricha murakkab kommunikativ hodisa hisoblanmish diskurs faqatgina matndan iborat bo'libgina qolmasdan, u extralingvistik faktorlarni ham o'ziga qamrab oladi. Bunga asosan diskurs quyidagi vaziyatlarda ko'riladi: muloqotga kirishuvchilarning e'tiqodlari, dunyoqarashlari, yoki g'oyalari, muloqot jarayonida o'zaro harakat aspektlarining til ishlatilishiga qanday ta'sir ko'rsatishi va aksincha til ishlatilishi keltirilgan aspektlardan qay tarzda ta'sirlanishida [6].

Barcha turdagi matnlar mutolaa jarayoni obyekti bo'lishi mumkin va muayyan matndan axborot qabul qilish ta'limning birlamchi maqsadi hisoblanadi [9]. Shu o'rinda, matn orqali sodir bo'ladigan axborot almashinuv jarayoni yozish va o'qishning bir-biriga chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ular o'rtasidagi aloqa bitta grafik til tizimida kechadi, ya'ni “grafik belgilar yordamida yozishda fikr kodlanadi, o'qish paytida grafik belgilar dekodlanadi [16]”. Grafik belgilar yordamida kodlanish yozish va gapirishda amalga oshiriladigan bo'lsa, ushbu jarayondagi dekodlanish hodisasi o'qish va tinglab tushunishda ro'y beradi.

Psixolingvistikaning tadqiqot predmetlari hisoblangan kodlash va dekodlash jarayonlari nutqning turli ko'rinishlarini amalga oshirish va uni idrok qilishdan iborat. Kod bu – ma'lum bir axborotni saqlash uchun berilgan shartli belgilar sistemasi bo'lib, dekodlash esa ushbu belgilarni teskari o'zgartirgan holda xabarni qabul qilish, anglash hisoblanadi [1]. Axborotni kodlashda foydalaniladigan shartli (grafik) belgilar yozuvni shakllantiradi va inson tafakkuridagi voqelikni reallashtirib, mohiyatdan hodisaga o'zgartiradi. O'tgan asrning 80-yillarida psixolingvist olim L.S.Vigotskiy verbal tafakkur tabiati xususida o'z qarashlarini bayon etar ekan dekodlashni matn idroki sifatida ta'riflab yoritib bergan [22].

Yozuvning boshqa nutq faoliyati turlariga qaraganda nisbatan murakkabligi uni amalga oshirishdagi aqliy operatsiyalar miqdorining ko'pligi bilan karakterlanadi. Grafik kodni ishga tushirishda asosiy uchta operatsiya ishtirok etadi: (1) tovushni tasavvur etish (avvaldan yodlangan axborotni yozish paytida) yoki tovushni idrok etish (aytib turib yozdirish chog'ida); (2) ushbu tasavvur yoki idrok bilan ma'lum bir grafemalar bog'lanishini o'rgatish; (3) yozuv jarayonidagi ichki nutq bilan bog'langan harakatlarni sodir etish [10]. Ichki nutq yozuvni amalga oshirishdagi operatsiyalarni boshqarib turib, grafik kodni shartli belgilar sistemasi yordamida matnga aylantirib, mahsulot hosil qiladi.

Nutq faoliyati jarayoni murakkab hisoblanib, yetkazilishi rejalashtirilayotgan axborot dastlab ichki nutqda maqsad maqomida bo'lib, tafakkur yordamida yuqoridagi davriy dasturlash bosqichlaridan o'tib tashqi nutqqa - verbal muloqotga ko'chadi. O'zbek lingvist olimi Sh.Safarov tashqi nutq tushunchasini “tasavvurga lisoniy libos berish” sifatida ta'riflab, sodir bo'layotgan voqeliklar nutq ijodkorlari tomonidan turlicha tasavvurlanib, ushbu tasavvurlar mazmunga lisoniy liboslar orqali o'tishini ta'kidlaydi [18].

Nutqning yuqorida keltirilgan ikki bosqichdan tashkil topgan faoliyat ekanligi mashhur rus tilshunosi, psixolingvisti L.S.Vigostkiy tomonidan ham keltirib o'tilgan. U ushbu jarayonni nutqiy tafakkurdagi harakat motivi ichki so'zdan tashqi so'zga tomon siljib, nihoyada so'zlarga aylanadi deya izohlaydi [23]. Motivlash ichki nutqda sodir bo'lib, tafakkur asnosida fikrlash bilan bog'lanadi va nutq faoliyatining keyingi bosqichida fonetik, leksik va grammatik jihatdan boyitilib tashqi nutqda matn sifatida paydo bo'ladi.

L.S.Vigostkiy insonda nutqiy faoliyatning shakllanishi va rivojlanishini o'rganish bilan eng ko'p shug'ullangan olimlardan biri hisoblanadi. Chunonchi, u bolalarda nutqiy faoliyatning shakllanish bosqichlarini kuzatar ekan, ichki nutqning eng faol rivojlanishi besh-olti yosh davrlarida kuzatilishini va ushbu davrda bolalarda ichki fikrlash qobiliyati namoyon bo'la boshlashini aniqlagan. Shuningdek, u tafakkur va nutqning o'zaro chambarchas aloqasini bolalik davriga xos psixik jarayon sifatida ta'riflaydi va inson rivojlanishining keyingi bosqichlarida tafakkurning tildan ajralishi kuzatilib, uning ma'lum darajada yoki butunlay ichki nutqiy reaksiyalardan holi bo'lishini ta'kidlaydi [22].

Tilshunoslikning eng dolzarb masalalaridan biri til va nutq tushunchalarini farqlashdan iborat bo'lib, bu ikki

tushunchaning mohiyatini anglash va o'rganish dastlab arab tilshunosligida sodir bo'lgan bo'lsa, bu hodisalarni nazariy jihatdan bir-biridan ajratib yangicha talqinlash fransiyalik buyuk tilshunosh F. de Sossyur va uning izdoshlari tomonidan amalga oshirilgan. Uning ta'limotiga ko'ra, "avval nutq faoliyati yuz beradi, undan til yuzaga keladi, tildan nutq hosil bo'ladi [21]" va u bu hodisani "o'tish" tarzida izohlaydi. Shuningdek, A.A. Leontev ham F. de Sossyurning bu ikki tushunchani farqlashi haqida fikr bildirib, buni quyidagi ikki mezondan tashkil topganligiga urg'u bergan: til-ijtimoiy va nutq-individual jarayon, til-abstrakt va nutq-konkret hodisa [14]. Lekin, zamonaviy ilmiy qarashlar til va nutqni faqat farqlanadi deya emas, balki bir-birini to'ldiradi deb izohlaydi.

Xulosa. Hozirgi globalashuv sharoitida ingliz tilida yozuv ko'nikmasini egallash zaruriyati keskin ortib, uni samarali o'rgatish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Mazkur jarayon psixolingvistik va psixofiziologik omillarning uzviy aloqasi asosida kechib, ularning har biri yozuvning mazmun va shakl jihatidan to'liq shakllanishida hal qiluvchi o'rin tutadi. Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, yozuvni samarali o'rgatish uchun uni faqat yordamchi vosita sifatida emas, balki chet til o'rganish jarayonining to'laqonli va muhim tarkibiy qismi sifatida yondashish lozim.

ADABIYOTLAR

1. Abuzalova M.Q., Fatullaeva K.R. Kodlash – tafakkur – dekodlash jarayonining bog'liqligi xususida. // Respublika miqyosidagi onlayn ilmiy-amaliy konferensiya materiallar to'plami. Buxoro. – 2021. – B. 5-7.
2. Azimov E.G., Shchukin A.N. Novyy slovar metodicheskikh terminov i ponyatiy (teoriya i praktika obucheniya yazykam). – M.: Izd-vo IKAR, 2009. – 63 s.
3. Arutyunov A.R. Teoriya i praktika sozdaniya uchebnika russkogo yazyka dlya inostrantsev. – M., 1990. – 76 s.
4. Boboxonova D. Psixolingvistika fanidan ma'ruzalar matni. – Namangan, 2019. – B. 23.
5. Borbotko V.G. Elementy teorii diskursa. – Kiyev: Vysha shkola, 1981. – 144 s.
6. Dijk van T.A. The Study of Discourse. Discourse as Structure and Process. Discourse Studies: A Multidisciplinary Introduction. – London – Thousand Oaks – New Delhi: SAGE Publications, 1997. – Vol. 1. – 352 p.
7. Galperin I.R. Tekst kak ob'ekt lingvisticheskogo issledovaniya. – M.: Nauka, 1981. – 140 s.
8. Harris Z. Discourse analysis // Linguistic Society of America, Language, Jan.-Mar., 1952, Vol. 28, No. 1, pp. 1-30.
9. Jalolov J., Ikromov J. Matn mutolaasi didaktikasi // Xalq ta'limi. – 1993. – №1. – B. 14-19.
10. Jalolov J.J. Chet tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 434 b.
11. Jinkin N.I. Rech kak provodnik informatsii. – M.: Nauka, 1982. – 108 s.
12. Kondakov N.I. Logicheskii slovar-spravochnik. – 2-e izd. – M.: Nauka, 1975.
13. Kubryakova E.S. Nominativnyy aspekt rechevoy deyatelnosti. – M., 1986.
14. Leontev A.A. Yazyk, rech, rechevaya deyatelnost. – M.: Prosveshchenie, 1969. – 214 s.
15. Makarov M.L. Interpretativnyy analiz diskursa v maloy gruppe. – Tver: Izd-vo Tverskogo gosudarstvennogo universiteta, 1998. – 199 s.
16. Nosirova D.N. Xorijiy tillarni o'rganishda o'qish, tinglash, yozish va gapirishning afzalliklari. // Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Vol. 2. – B. 648-655. <https://cyberleninka.ru/article/n/xorijiy-tillarni-o-rganishda-o-qish-tinglash-yozish-va-gapirishning-afzalliklari/viewer>
17. Saimnazarova D.A. Talabalarga ingliz tilida matn o'qishni o'rgatishning innovatsion texnologiyalari. – Chirchiq, 2021. – 145 b.
18. Safarov Sh. Pragmalingvistika. – T., 2008. – B. 168.
19. Saidaliyev S. Chet tilda yozishni o'rganish va o'rgatish. // Stroitel'stvo i obrazovanie. – 2023. – №3 (5). – B. 34-48.
20. Sedov K.F. Diskurs i lichnost. – M.: Labirint, 2004. – S. 10-11.
21. Sossyur F. de. Trudy po yazykoznaniyu. – M., 1977.
22. Vygotskiy L.S. Myshlenie i rech. – M.: Izd-vo APN RSFSR, 1956. – S. 263.
23. Vygotskiy L.S. Izbrannye psikhologicheskie issledovaniya. – M., 1956.